

“YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH ZAMON
TALABI”

Tulanova Ra'no Yasharovna

Andijon viloyati andijon tumani 37 – umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 18.07.2024

Revised: 19.07.2024

Accepted: 20.07.2024

KALIT SO'ZLAR:

*Vatanparvarlik
tarbiyasi, Yoshlar
tarbiyasi, Milliy
qadriyatlar, Pedagogik
metodlar, Oila va
mahalla, Davlat
siyosati, Raqamli
texnologiyalar,
Fuqarolik mas'uliyati.*

Ushbu maqola yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy talablari, nazariy asoslari va amaliy jihatlarini o'rganadi. Maqolada vatanparvarlik tushunchasi falsafiy, pedagogik, psixologik va ijtimoiy-psixologik nuqtai nazarlardan tahlil qilinib, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy metodik prinsiplari, maktab, oila, mahalla va davlat siyosati hamda raqamli texnologiyalarning roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalashda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ijtimoiy hamkorlik va innovatsion usullar muhimligi ta'kidlangan. Maqola O'zbekiston Respublikasining ta'lim va yoshlar siyosati sohasidagi qonuniy hujjatlariga tayanadi hamda milliy istiqlol g'oyasi va yoshlar tarbiyasi bo'yicha olimlarning ilmiy tadqiqotlariga asoslanadi.

Vatanparvarlik – bu fuqarolik mas'uliyatining yuksak shakli bo'lib, insonning o'z yurtiga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy merosga faxr, xalq va davlat manfaatlari yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilishga tayyorligi ifodasidir. Ushbu tushuncha falsafa, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar nuqtai nazaridan turlicha talqin qilinadi. Falsafiy nuqtai nazardan, vatanparvarlik – bu shaxs va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlik, insonning tarixiy-madaniy ildizlari bilan bog'liqligini anglash shaklidir. Pedagogik yondashuvda, vatanparvarlik shaxsda axloqiy-estetik, intellektual, emotsional jihatlarni uyg'un holda shakllantiradigan maqsadli tarbiyaviy faoliyat sifatida qaraladi. Psixologiyada, vatanparvarlik – bu insonning o'zligini, milliy o'ziga xosligini idrok etishi, o'z yurtiga mehr-muhabbat tuyg'ulari orqali o'z ijtimoiy rolini anglash jarayonidir. Vatanparvarlik tarbiyasi quyidagi asosiy nazariy yondashuvlarga tayanadi. Bulardan biri ma'naviy-axloqiy yondashuvdir. Bu yondashuvga ko'ra, vatanparvarlik – ma'naviy tarbiyaning asosiy komponentidir. Bu holatda quyidagi qadriyatlar ustuvor hisoblanadi: mehr-oqibat, sadoqat,

fidoiylik, burch, vijdon. Shaxsda ushbu fazilatlarni shakllantirish orqali vatanparvarlik tarbiyasi amalga oshiriladi. Yana bir muhim yondashuvlardan biri tarixiy-madaniy yondashuv hisoblanadi. Yosh avlodga milliy tarix, madaniyat, ajdodlar merosi haqida chuqur bilim berish orqali vatanparvarlik hissi uygʻotiladi. Tarixiy ongni shakllantirish orqali oʻquvchilar Vatan tushunchasini shunchaki hudud emas, balki azaliy qadriyatlar manbai sifatida idrok etadi. Ijtimoiy-psixologik yondashuv - bu yondashuv shaxsning ijtimoiy muhit bilan oʻzaro munosabatlari asosida vatanparvarlik tuygʻusining shakllanishini koʻzda tutadi. Oila, maktab, mahalla, ommaviy axborot vositalari – bularning barchasi yoshlarning dunyoqarashi va Vatanga nisbatan hissiy munosabatini belgilovchi omillardir. Sivilizatsiyaviy yondashuv - bu yondashuvda vatanparvarlik zamonaviy fuqarolik jamiyati sharoitida milliy oʻzlikni global muhitda asrashga qaratilgan. Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy maqsadi – shaxsda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, jamiyat oldidagi masʼuliyat hissini shakllantirishdir. Va oʻquvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, tarixiy xotirani uygʻotish, ajdodlarga hurmat ruhini shakllantirish, yurt tinchligi va taraqqiyoti uchun shaxsiy masʼuliyatni anglashga oʻrgatish, harbiy-vatanparvarlik koʻnikmalarini rivojlantirishdir. Shuningdek Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Yangi Oʻzbekiston strategiyasi” va Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yilgi yangi tahriridagi 78-moddasi⁴ga binoan muhtaram prezidentimiz davlat va jamiyat bolalar hamda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, madaniy merosdan faxrlanish, vatanparvarlik va Vatanga boʻlgan mehr-muhabbat tuygʻularini shakllantirishga gʻamxoʻrlik qilishi ushbu qarorda belgilab qoʻygan. Va olimlarimiz bu sohada muhim ilmiy izlanishlar olib brogan. S. Toshboyev – “Milliy istiqlol gʻoyasi va yoshlar tarbiyasi”. S. Toshboyevning bu asari yoshlar tarbiyasini gʻoyaviy-ruhiy jihatdan kuchaytirish, ularni milliy mafkuraviy barqarorlikka erishish yoʻlida tayyorlashga xizmat qiladi. U tarbiyani jamiyatni himoya qilishning mafkuraviy vositasi, deb qaraydi. Bu esa, ayniqsa, maktab va taʼlim tizimi uchun beqiyos ahamiyatga ega. A. Joʻrayevning “Pedagogik mahorat va shaxs tarbiyasi” asari pedagoglarga oʻz kasbiy faoliyatida mahorat va shaxsiy fazilatlarni uygʻunlashtirish, shuningdek, yosh avlod tarbiyasida mukammal shaxsni shakllantirish yoʻllarini koʻrsatadi. Gʻ. Joʻraev va B. Joʻrayevning tadqiqotlari maktab muhitida vatanparvarlik tarbiyasi metodlarini yanada takomillashtirish, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga samarali yoʻllarni aniqlashga qaratilgan ilmiy ishdir. Ularning ishlari amaliyotga joriy qilinsa, maktablarda vatanparvarlik ruhida yosh avlodni shakllantirishda muhim vosita boʻladi. Taʼlim tizimida yosh avlodni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga sadoqat, fuqarolik ongiga ega shaxs qilib tarbiyalash – maktab tarbiyasining asosiy yoʻnalishlaridan biridir. Vatanparvarlik tarbiyasi faqat darslar davomida emas, balki maktabdagi barcha pedagogik faoliyatning uzviy qismiga aylanishi zarur. Bu borada samarali metodika va uslubiy yondashuvlar asosiy

⁴ Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yilgi yangi tahriri. — Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nashriyoti, 2023.

vosita hisoblanadi. Maktabdagi vatanparvarlik tarbiyasi quyidagi asosiy metodik prinsiplar asosida tashkil qilinadi. Ulardan biri tizimlilik va izchillik – bu tarbiya ishlari tasodifiy yoki epizodik bo‘lmashligi, balki yil davomida aniq maqsad, vazifa, shakl va uslublar asosida olib borilishi kerak. Integrativlik - dars va darsdan tashqari faoliyatlarda vatanparvarlik g‘oyalari boshqa tarbiyaviy yo‘nalishlar bilan uyg‘un holda berilishi lozim (masalan, ekologik, estetik, axloqiy tarbiya bilan bog‘lash. Hayotiylik va amaliy yo‘naltirish - o‘quvchilarni faqat nazariy ma‘lumotlar bilan emas, balki bevosita hayotiy voqealar, tarixiy joylarga ekskursiyalar, harbiy qismlar bilan uchrashuvlar orqali tarbiyalash samaralidir. Har bir o‘quvchining yosh xususiyati, qiziqishi, individual salohiyatidan kelib chiqib tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. Maktabdagi vatanparvarlik tarbiyasida qo‘llaniladigan asosiy shakl va metodlaridan biri dars jarayonida tarbiya – har bir fandan o‘tilayotgan darsni vatanparvarlik ruhida olib borish mumkin. Misol uchun tarix – milliy davlatchilik, Amir Temur, jadidlar, istiqlol tarixini chuqur o‘rganish, adabiyot – Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Zulfiya kabi adiblarning yurtparvarlik g‘oyalari, geografiya – O‘zbekiston tabiati, boyliklari, hududiy birligi haqida bilimlar orqali vatan tuyg‘usini mustahkamlash va informatika va texnologiya – raqamli vositalar orqali vatanparvarlik mavzularida prezentatsiyalar, ijtimoiy loyihalar yaratish. Darsdan tashqari va tashkiliy ishlar maktab liniyalari, bayram tadbirlari – Davlat ramzlari, tarixiy sanalarga bag‘ishlangan chiqishlar. Harbiy-sport tadbirlari – “Vatan himoyachilari kuni”, “Qurolli kuchlar tarixi”, “Jasorat” haftaliklari. “Men – O‘zbekiston farzandiman” sinf soatlari – Shaxsiy hayotiy rejalar va jamiyat oldidagi mas‘uliyat haqida suhbatlar. Maktab muzeylari, faxriylar uchrashuvi – Mahalla faxriylarini jalb qilgan holda o‘quvchilar bilan uchrashuvlar. Vatanparvarlik ruhini yanada rivojlantiruvchi loyihaviy va ijodiy yondashuvlari “Yurt faxri” – tarixiy shaxslar va zamonaviy fidoyilar haqida o‘quvchilarning taqdimotlari, “Ajdodlar izidan” – tarixiy obidalarga sayohatlar va “Mening Vatanim – mening faxrim” – insholar tanlovi, videoroliklar, ijtimoiy sahifalar yuritish. Yillik tarbiya rejasiga vatanparvarlik blokini kiritish – Bu blokda bayram tadbirlari, sinf soatlari, uchrashuvlar va loyihalar tizimlashtiriladi. Metodik birlashmalar orqali tajriba almashish – Tarbiya bo‘yicha ilg‘or pedagoglar tajribasini boshqalarga ommalashtirish. Monitoring va baholash mezonlarini ishlab chiqish – Vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini aniqlash uchun so‘rovnomalar, kuzatuv kartalari, portfoliolar ishlatilishi mumkin. Raqamli resurslardan foydalanish ⁵Internetdagi ijobiy kontentlardan (videoroliklar, vatanparvarlikka oid mobil ilovalar) o‘rinli foydalanish. Ijtimoiy hamkorlik – Mahalla, harbiy qismlar, davlat idoralari, madaniyat muassasalari bilan hamkorlik qilish orqali tarbiyani maktabdan tashqariga olib chiqish. Maktabda vatanparvarlik tarbiyasi metodik jihatdan puxta tashkil etilsa, o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki shaxsiy mas‘uliyat, milliy g‘urur, jamiyatga bo‘lgan daxldorlik tuyg‘usi ortadi. Bu esa mustaqil fikrlaydigan, jonkuyar, yurtiga fidoyi yoshlar avlodining shakllanishiga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida amalga

⁵ www.yoshlar.gov.uz, www.maktab.uz, www.lex.uz

oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub o'zgarishlar, yoshlar ongida milliy g'urur va Vatanga sadoqat hissini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishning ortishi – ko'plab yoshlar tarix, ajdodlar merosi, milliy urf-odatlariga faol qiziqish bildirmoqda. Yoshlar yetakchilari, “Yoshlar ishlari agentligi” faoliyati – bu tizimlar orqali yoshlar uchun vatanparvarlikka oid loyihalar, tanlovlar, vatan tuyg'usini mustahkamlovchi tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Temurbeklar maktabi, harbiy akademik litseylar – yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida shakllantirish uchun maxsus muassasalar ochilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda milliy yuksalishga oid kontentlar sonining ortishi – ba'zi bloggerlar va ommabop sahifalar orqali vatanparvarlik g'oyalari ommalashmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida keng tarqalgan. Ularni vatanparvarlik tarbiyasida samarali vosita sifatida ishlatish katta ahamiyatga ega. Misol uchun, o'quvchilar uchun interaktiv o'quv platformalari, vatanparvarlik mavzusidagi video- va multimedia loyihalar, onlayn viktorinalar, shuningdek, milliy tarix va madaniyatga oid mobil ilovalar yaratilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot kampaniyalari, yosh bloggerlar va ta'sirchan shaxslar orqali milliy g'urur va Vatanga muhabbat g'oyalari kengaytirilmoqda. Bunday raqamli platformalar yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ular orasida sog'lom raqobat va ijodiy faoliyatni rag'batlantiradi. Vatanparvarlik tarbiyasi faqat maktab bilan cheklanmaydi, balki oila va mahalla hamda keng jamoatchilikning faol ishtiroki talab etiladi. Tarbiya jarayonida oilaning o'rni beqiyosdir, chunki bola yoshligidan o'zining birinchi ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini aynan uy muhitida oladi. Ota-onalar yoshlarning milliy qadriyatlarga mehrini shakllantirishda birinchi va eng muhim tarbiyachilar hisoblanadi. Ularning hayotiy tajribalari, hayotga munosabati, milliy urf-odatlariga hurmati va Vatanga bo'lgan sevgisi farzandga ko'chadi. Oilada vatanparvarlik haqidagi suhbatlar, an'anaviy bayramlar, tarixiy voqealar haqida hikoyalar yoshlarning tarixiy xotirasini uyg'otadi, milliy o'zlikni chuqurroq anglashlariga yordam beradi. Ota-onalarning faol ishtiroki orqali yoshlarning axloqiy va fuqarolik mas'uliyatini oshirish mumkin. Masalan, ota-onalar bilan maktabda tashkil etiladigan seminarlar, vatanparvarlik mavzusidagi uchrashuvlar yoshlarni yanada qiziqtiradi va tarbiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mahalla va jamoat tashkilotlari yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Mahalla an'analari, tarixiy obidalar, mahalliy qo'riqchilar va faxriylar bilan uchrashuvlar yoshlar uchun jonli tarbiyaviy dars bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy tadbirlar, madaniy kechalar, sport musobaqalari va ko'ngilli loyihalar orqali yoshlar o'z vataniga bo'lgan muhabbatni amaliyotda namoyish etadilar va jamiyatga foydali bo'lishga o'rgatiladi. Jamoat tashkilotlari tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy va ma'naviy loyihalar yoshlarni ijtimoiy faollikka chorlaydi, ularning davlat va jamiyatga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi. Maktab, oila va mahalla o'rtasida samarali hamkorlik yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishida muhim ahamiyatga ega. Masalan, maktabdagi tarbiyaviy tadbirlarni mahalla bilan birgalikda tashkil qilish, ota-onalarni faol jalb etish orqali ta'lim jarayoni

yanada boy va ta'sirchan bo'ladi. Davlat idoralari, madaniyat va sport muassasalari bilan birgalikda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli loyihalar va dasturlarni amalga oshirish mumkin. Ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali ota-onalar va jamoatchilik o'rtasida milliy tarbiya masalalari bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini kuchaytirish talab etiladi. Vatanparvarlik tarbiyasi — bu maktab bilan cheklanmaydigan, balki ota-ona, jamoat va davlatning birgalikdagi mas'uliyati bo'lib, ular orasida uzviy hamkorlik va o'zaro tushunish asosida shakllanadi. Ushbu tizimli yondashuv yoshlarni nafaqat bilimli, balki jamiyatga sodiq, ma'naviy yetuk va vatanparvar shaxslar sifatida voyaga yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yilgi yangi tahriri. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nashriyoti, 2023.
- 2 O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent: Adolat, 2020.
- 3 "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 1997.
- 4 "Yangi O'zbekiston strategiyasi". — Prezident qarori asosida, Toshkent: 2022.
- 5 S. Toshboyev. Milliy istiqlol g'oyasi va yoshlar tarbiyasi. — Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
- 6 A. Jo'rayev. Pedagogik mahorat va shaxs tarbiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2012.
- 7 G'. Jo'raev, B. Jo'rayev. Yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik omili. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
- 8 Q. Yuldashev. Vatanparvarlik tarbiyasi: nazariya va amaliyot. — Toshkent: O'qituvchi, 2021.
- 9 A. Abduvahobov. Yoshlar va ma'naviyat: Tarbiyaviy yondashuvlar. — Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
- 10 R. Karimova. Milliy qadriyatlar asosida tarbiya metodikasi. — Toshkent: Fan, 2018.
- 11 Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim vazirligining tarbiya konsepsiyasi va metodik tavsiyalari. — Toshkent, 2022.
- 12 "Yoshlar ishlari agentligi" rasmiy axborot byulletenlari. — Toshkent: 2023–2024-yillar.
- 13 O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarixi. Harbiy ensiklopediya. — Toshkent: Mudofaa vazirligi nashriyoti, 2020.
- 14 Xalq ta'limi vazirligi. Tarbiya ishlari bo'yicha metodik qo'llanma. — Toshkent: 2021.
- 15 www.yoshlar.gov.uz
www.maktab.uz
www.lex.uz normativ-huquqiy hujjatlar